

ZAMONAVIY TA'LIMDA 4K MODELI TUSHUNCHASI VA UNING ROLI

Akramov Shukurjon To'xtasinovich

Qo'qon davlat universiteti, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Boltaboyeva Muattarxon To'lanboy qizi

Qo'qon davlat universiteti, 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda keng qo'llanilayotgan 4K modeli — tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiya tushunchalari yoritiladi. Har bir kompetensiyaning o'quvchilarni shaxs sifatida rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, 4K modeli orqali ta'lim sifatini oshirishga doir ilmiy yondashuvlar va xalqaro tajribalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: 4K modeli, zamonaviy ta'lim, ta'limda innovatsiyalar, kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya ko'nikmalari, hamkorlik, muammo yechish, ta'lim jarayoni, ta'lim samaradorligi.

THE CONCEPT AND ROLE OF THE 4K MODEL IN MODERN EDUCATION

Abstract: This article explores the widely implemented 4C model in modern education — critical thinking, creativity, collaboration, and communication. The paper analyzes the significance of each competency in developing students as individuals. Additionally, it examines educational approaches and international experiences that aim to improve education quality through the 4C model.

Keywords: 4K model, modern education, educational innovations, creativity, critical thinking, communication skills, collaboration, problem solving, educational process, education effectiveness.

ПОНЯТИЕ И РОЛЬ МОДЕЛИ 4К В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данной статье рассматривается широко используемая в современном образовании модель 4К — критическое мышление, креативность, сотрудничество и коммуникация. Анализируется роль каждой компетенции в развитии личности учащихся. Также изучаются научные подходы и международный опыт по повышению качества образования через модель 4К.

Ключевые слова: модель 4К, современное образование, инновации в образовании, креативность, критическое мышление, навыки коммуникации, коллаборация, решение проблем, образовательный процесс, эффективность образования

Hozirgi kunda Yangi O'zbekiston hayotida barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim sohasini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion ta'lim metodlarini qo'llagan holda, zamon talabiga mos ravishda yangicha dars o'tish shakllari va ta'lim dasturlari ishlab chiqildi. Zamonaviy ta'lim tizimi o'zgaruvchan va raqobatbardosh dunyoga moslashuvchan, zamonaviy ko'nikmalarga ega shaxslarni tarbiyalashni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, 4K modeli (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiya) ta'limda markaziy o'rinni egallamoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 29-aprel kuni "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonni imzoladi. Farmon bilan Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish uchun yo'l xaritasi tasdiqlandi. Konsepsiya ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Xususan, umumiy o'rta ta'lim tizimi takomillashtiriladi. Shuningdek, xorijiy tillar, kompyuter savodxonligi, matematika, fizika, tabiiy fanlar kabi fanlar bo'yicha yangi o'quv standartlari, dastur hamda darsliklar yaratiladi. O'quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil ravishda kasb-hunar tanlash hamda zamonaviy kasblarni egallashi uchun sharoitlar yaratiladi.[1] Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan 4K modeli asosida tayyorlandi. Ushbu model asosida yaratilgan yangi avlod darsliklari bolani to'rt ko'nikma asosida rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu yangi tajriba o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o'z fikrini erkin bayon eta olishiga ko'proq ahamiyat beradi. Boshlang'ich sinflar uchun 4K modeli asosida yaratilgan yangi darsliklar yosh avlodni har tomonlama rivojlantiribgina qolmay, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgani bilan ham yanada ahamiyatlidir.

XXI asrda ta'lim tizimi inson kapitalini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy muhit va mehnat bozoridagi keskin o'zgarishlar ta'limda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy ta'lim jarayonida 4K modeli — tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiya — markaziy kompetensiyalar sifatida ilgari surilmoqda. Quyida har bir K bo'limi (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) uchun alohida to'xtalib o'tamiz:

1. Tanqidiy fikrlash (Critical Thinking)

Tanqidiy fikrlash — bu shunchaki o'qilgan yoki eshitilgan ma'lumotni qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish, baholash va asosli xulosa chiqarish ko'nikmasidir. XXI asr ta'limida bu kompetensiya muhim o'rin egallaydi, chunki axborot ko'pligi sharoitida har bir shaxs mustaqil fikrlay olishi, noto'g'ri yoki manipulyativ ma'lumotlarni aniqlay

bilishi zarurdir. Tanqidiy fikrlash o'quvchining fikrni tahlil qilish, savollar berish, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi³. Bu ko'nikma nafaqat fanlarni o'zlashtirishda, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, ilmiy-ijodiy topshiriqlarda tanqidiy yondashuv o'quvchini o'z fikrini mustaqil shakllantirishga undaydi. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun dars jarayonida ochiq savollar berish, muammoli vaziyatlar yaratish, bahs va munozaralarni tashkil etish samarali usullar hisoblanadi.[2]

2. Ijodkorlik (Creativity)

Ijodkorlik — bu yangi g'oya, yechim yoki mahsulot yaratish qobiliyati bo'lib, zamonaviy dunyoda innovatsiyalar manbai hisoblanadi. "Ijodkorlik" so'zi lotincha "creo" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, biror narsa qilish yoki yaratish degan ma'noni anglatadi. "Ijodkorlik" so'zi Qadimgi Yunonistonda mavjud emas edi; san'at yoki asarlar ijodiy ish emas, balki taqlid qilish shakli deb hisoblangan. Kreativlik - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi.[3] UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, XXI asrda ta'lim tizimi ijodiy fikrlovchi va yangilik yaratuvchi avlodni tarbiyalashga yo'naltirilishi kerak.[4] Ta'lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish uchun o'quvchilarga erkin tanlov asosida topshiriqlar berish, loyihaviy ishlarga jalb etish, interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ijodkorlik faqat san'at yoki adabiyot bilan cheklanmaydi — matematikada, biologiyada, hatto informatika fanida ham ijodiy yondashuv talab qilinadi. Shuningdek, ijodkorlikni rivojlantirish uchun o'qituvchining o'zi ham yangicha yondashuvga tayyor bo'lishi lozim. O'quv muhitining erkin, qo'llab-quvvatlovchi bo'lishi ijodiy tafakkur uchun zamin yaratadi.

3. Kollaboratsiya (Collaboration)

Kollaboratsiya — bu jamoaviy ish, mas'uliyatni taqsimlash, fikr almashish va umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilishni anglatadi. Zamonaviy ish muhitida jamoa a'zolari bir-biriga bog'liq bo'lgan loyihalarda faol hamkorlik qilishi kerak. Shu boisdan, maktab davridan boshlab bu kompetensiyani shakllantirish muhimdir. Hamkorlikni o'rgatishda guruhli ishlar, guruhlarda ishlash uchun berilgan maxsus topshiriqlar, rollarga bo'lingan vazifalar, loyiha asosida o'qitish metodikasi qo'llaniladi. Ba'zi tortinchoq o'quvchilar ham bunday qiziqarli, jamoaviy topshiriqlarni bajarishda faol ishtirok etishadi. O'quvchilar jamoa ichida mas'uliyat, hurmat va o'zaro tinglash kabi ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Bu esa ularni ijtimoiy jihatdan yetuk shaxslar bo'lib shakllanishiga yordam beradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar yordamida masofaviy

hamkorlik qilish imkoniyatlari kengaydi. Xalqaro loyihalar va onlayn guruhli ishlar orqali ham o'quvchilar hamkorlikni global darajada o'rganishlari mumkin.

4. Kommunikatsiya (Communication)

Kommunikatsiya — bu fikr, axborot, his-tuyg'ularni aniq, ravon va samarali tarzda yetkazish san'atidir. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi, shuningdek o'quvchilar o'rtasidagi muloqot samaradorligi o'zaro tushunishni belgilaydi. Zamonaviy talimda kommunikatsiya ikki jihatdan muhim: og'zaki va yozma shaklda fikrni aniq ifoda eta olish; raqamli vositalarda samarali muloqot olib borish.[5] O'quvchilarda kommunikatsiyani rivojlantirish uchun bahs-munozaralar, taqdimotlar, esse yozish, loyiha himoyalari kabi topshiriqlar keng qo'llaniladi. Bu topshiriqlar o'quvchilarning o'z fikrini aniq, mantiqan asoslab aytishiga, hamda tinglovchini tushunishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, zamonaviy kommunikatsiya madaniyati, xususan, onlayn etikett (digital etiquette) va axloqiy qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi. Bu esa shaxsni har tomonlama yetuk etib shakllantiradi.

Bu kompetensiyalar nafaqat o'quv jarayonini jonlantiradi, balki o'quvchilarni kelajakdagi hayot va mehnat bozori talablariga tayyorlaydi. Xulosa qiladigan bo'lsak, bu 4K modeli zamonaviy ta'limda markaziy o'rin tutadi. Bu yondashuv orqali nafaqat bilimlar, balki hayotiy zarur ko'nikmalar ham shakllanadi. Ta'limda 4K modelini tatbiq etish — raqobatbardosh, mustaqil va kreativ fikrlovchi shaxslarni tayyorlashning muhim omilidir. Bu kompetensiyalar faqatgina an'anaviy bilim berish emas, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, yangilik yaratishga qobiliyatli bo'lishi, jamoaviy ishlashni bilishi va o'z fikrini aniq ifoda eta olishini shakllantiradi.

Xalqaro tajribalarni tahlil qiladigan bo'lsak, AQSh, Finlyandiya, Janubiy Koreya va Singapur kabi ilg'or ta'lim tizimlariga ega mamlakatlar 4K modelini amaliyotda muvaffaqiyatli tatbiq etmoqda. Masalan, Finlyandiyada fanlararo integratsiya asosida loyiha va guruhli ishlarga katta e'tibor qaratiladi. AQShda esa "21st Century Skills" dasturi asosida har bir maktabda 4K kompetensiyalari asosiy o'quv rejasiga kiritilgan. [6] Singapur ta'lim tizimida esa o'quvchilar har bir darsda bahs-munozara, kreativ yondashuv va jamoaviy topshiriqlar orqali kommunikativ va ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishadi. Bu tajribalar O'zbekiston ta'limi uchun muhim yo'nalish bo'lishi hisoblanadi.

O'zbekistonda joriy holat esa, ayni paytda umumta'lim maktablarida yangi o'quv dasturlarida ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va kommunikatsiyaga doir topshiriqlar soni ko'paymoqda. Biroq, amaliyotda bu yondashuvlar ba'zida an'anaviy uslubda qolib ketmoqda. Shuning uchun o'qituvchilarni qayta tayyorlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va baholash tizimini takomillashtirish lozim. Zamonaviy ta'lim jarayonida 4K modeli — tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiya — o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini

shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu kompetensiyalar nafaqat bilim olish jarayonini yengillashtiradi, balki o‘quvchilarning kelajakdagi hayoti va kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishini ta‘minlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro tajribalar asosida 4K modeli ta‘limga tizimli ravishda integratsiya qilinmoqda. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda qator islohotlar amalga oshirilmoqda, biroq amaliyotda ayrim to‘siqlar mavjud: o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi yetarli emasligi, dars metodikasining eskirganligi va baholash tizimining kompetensiyaga yo‘naltirilmaganligi shular jumlasidandir.

Shunday ekan, quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. O‘qituvchilarni qayta tayyorlash: 4K modeliga asoslangan pedagogik yondashuvlarni o‘rgatish kurslari tashkil etilishi zarur.
2. O‘quv dasturlarini takomillashtirish: fanlararo yondashuv va ijodiy topshiriqlarga ko‘proq o‘rin berish kerak.
3. Baholash tizimini yangilash: o‘quvchilarni faqat faktlarga asoslangan testlar bilan emas, balki tanqidiy fikr, ijodiy yondashuv, hamkorlikdagi ishtirok va muloqot asosida baholash lozim.
4. Texnologiyalarni kengroq joriy etish: onlayn platformalar va raqamli vositalar orqali kommunikatsiya va hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash samarali bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, 4K modeli O‘zbekiston ta‘lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, global raqobatbardoshlikni ta‘minlash va shaxsning har tomonlama kamol topishida hal qiluvchi omil sifatida qaralishi kerak. Ta‘lim va tarbiya jarayonida ushbu model asosida yaratilgan darsliklardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanilsa, albatta, ta‘lim samaradorligi oshadi va ko‘zlangan maqsadga erishamiz. Chunki, bizga har tomonlama rivojlangan, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan, tanqidiy dunyoqarash va kreativlik xususiyatlariga ega bo‘lgan bilimli yoshlar zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xalq ta'limi tizimni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi PF-5712-sonli Farmoni.
2. Brookfield, S. D. (2012). Teaching for Critical Thinking.
3. Qo‘chqorova Dinora Osomiddin qizi “4K modeli asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent -2025.
4. UNESCO (2017). Fostering Creativity for the 21st Century.
5. Hargie, O. (2011). Skilled Interpersonal Communication: Research, Theory and Practice.
6. Trilling. B. , Fadel. C. 21st Century Skills. London- 2009.

7. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work with Pairing in the Autocad Software." *International Journal on Orange Technologies* 3.12 (2021): 211-216.

8. Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir qizi "PERSPEKTIVA." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 11. 2022.

9. Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.4 (2022): 70-81.

10. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorovich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.3 (2022): 288-296.

11. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."